

**O 'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida virtual bank kartasini ochish  
va unga xizmat ko'rsatish bo'yicha  
Ommaviy oferta-shartnomasi**

Ushbu hujjat «ASIA ALLIANCE BANK» ATBning (bundan buyon matnda - “Bank” deb yuritiladi) rasmiy taklifi (ommaviy oferta) hisoblanib, jismoniy shaxslarning mobil qurilmalari va ularga o'rnatilgan Bank Mobil ilovasidan foydalangan holda masofadan turib hisobvaraqlari ochiladigan, O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida virtual bank kartalarini chiqarish va ularga xizmat ko'rsatish to'g'risidagi Shartnomaning standart shartlarini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining (O'zRFK) 369-moddasi 2-qismiga muvofiq, quyida bayon qilingan Ommaviy oferta shartlari qabul qilingan taqdirda, ushbu ofertani akseptlovchi Mijoz - jismoniy shaxs Buyurtmachiga aylanadi (O'zRFKning 370-moddasi 4-qismiga muvofiq ofertani akseptlash, ofertada bayon qilingan shartlar bo`yicha shartnoma tuzishga tengdir), Bank va Mijoz esa birgalikda - ushbu Shartnomaning Taraflari hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ushbu ommaviy ofertaning matnni diqqat bilan o'qib chiqing va Bank Tariflari bilan tanishib chiqing. Agar Siz ofertaning biron-bir bandiga rozi bo'lmasangiz, Bank Sizga xizmatlardan foydalanishni rad etishni taklif qiladi.

## **1. SHARTNOMA PREDMETI**

1.1 Ushbu Shartnomaning predmeti bo`lib, mazkur Shartnomaga va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq Bank tomonidan Karta hisobvarag'ini ochish va unga xizmat ko'rsatish, O`zR milliy valyutasida virtual bank kartalarini ochish va unga xizmat ko'rsatish bo'yicha bank xizmatlarini ko'rsatishda Mijoz va Bankning o'zaro hamkorligi hisoblanadi.

Mijozning hisobvarag'i bo'yicha Operatsiyalar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining normativ hujjalari, To'lov tizimlari qoidalariga va ushbu Shartnomaga muvofiq amalgalashuv bilan tanishib chiqing.

1.2 Shartnoma shartlari standart shaklda belgilanadi va Mijoz tomonidan MSKHni ochish va milliy valyutada bank kartasini chiqarish uchun elektron ariza berish va Ommaviy oferta shartlariga rozilik berish orqali, Mijoz tomonidan Bankning Mobil ilovasidagi “Men ommaviy oferta shartlari bilan tanishib chiqdim va roziman” degan matn yonidagi katakchaga tasdiq belgisini (rozilagini) qo'yan paytda Mijozning rozi bo`lishi orqali qabul qilinishi mumkin, by esa umuman olganda, Mijozning ushbu Shartnomaga qo'shilishini (aktseptini) anglatadi.

## **2. ATAMA VA TA`RIFLAR**

2.1. **Ofertani aktseptlash** - Mijoz tomonidan ushbu Ofertaning 1.2-bandida ko'rsatilgan harakatlarni amalgalashuv bilan tanishib chiqdim va qabul qilishi.

2.2. **Autentifikatsiya** - Shartnomalar tuzish, hujjalarni yuborish, operatsiyalarni va Shartnoma shartlarida nazarda tutilgan tartibda boshqa harakatlarni amalgalashuv bilan tanishib chiqdim va qilganimi Mijoz tomonidan tasdiqlanish tartib-taomili.

2.3. **Bankomat** – Mijozga Virtual karta bo'yicha Karta hisobvarag'idagi mablag' qoldig'i doirasida naqd pul mablag'larini berish uchun foydalilaniladigan NFC funktsiyasiga ega bo`lgan avtomatlashtirilgan qurilma.

**2.4. Virtual bank kartasi (bundan buyon - “Virtual karta” deb yuritiladi) –** O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasidagi karta hisobvarag'iga bog'langan elektron shakldagi bank kartasi bo`lib, bu to'lovlarni amalga oshirish uchun zarur bo`lgan bank kartasining majburiy rekvizitlarini o'z ichiga olgan to'lov vositasi hisoblanadi.

**2.5. Qaytarish** – Virtual karta yordamida sotib olingan va Korxona tomonidan ma`qullangan tovarlar, ishlar va xizmatlardan Mijozning voz kechganligi natijasida va Mijozning Karta hisobvarag`ini kreditlash uchun belgilangan shaklda Korxona tomonidan amalga oshiriladigan pul mablag'larining har qanday qaytarilishi. Qaytarish naqd pul shaklida amalga oshirilishi mumkin emas.

**2.6. Ko`chirma** - bu ma'lum vaqt ichida Virtual karta rekvizitlaridan foydalangan holda Mijoz tomonidan amalga oshirilgan operatsiyalar to'g'risidagi hisobot. Mijoz ma'lumotnomani Bankning Mobil ilovasi, Bankning xizmat ko'rsatish bo`linmalari orqali olishi mumkin.

**2.7. Hisob-kitob sanasi** - amalga oshirilgan Tranzaktsiyalar bo`yicha Karta hisobvarag'idan mablag'larni hisobdan chiqarish sanasisi.

**2.8. Tranzaktsiya sanasi** - Tranzaktsiya amalga oshirilgan sana.

**2.9. Masofaviy bank xizmatlari (MBX)** – telekommunikatsiya tizimlaridan foydalangan holda masofadan uzatiladigan (qabul qilinadigan) elektron almashinuvlar asosida Mijozga taqdim etiladigan bank xizmatlari to'plami.

**2.10. Oferta shartnomasi** - virtual bank kartalarini ochish va ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha Bank va Mijoz o'rtaсидаги xizmat ko'rsatish shartnomasi.

**2.11. Identifikatsiya** - Bank tomonidan Mijozni lozim darajada tekshirish maqsadida Mijoz haqidagi ma'lumotlarni u tomonidan taqdim etilgan hujjatlar (har qanday bank xizmatlarini olish uchun Mijoz Bankka shaxsan murojaat qilganida), shuningdek ochiq manbalarda va ma'lumotlar bazalarida mavjud bo`lgan qo'shimcha tasdiqlangan ma'lumotlar asosida aniqlash.

**2.12. Identifikatsiyalangan foydalanuvchi** - Bankning ABTda shaxsga doir ma'lumotlarga ega bo`lgan identifikatsiya jarayonidan o'tgan Mobil ilovaning funktional imkoniyatlardan cheksiz foydalanish huquqiga ega bo`lgan foydalanuvchi;

**2.13. Karta hisobvarag'i** - Virtual karta orqali o'zaro hisob-kitoblarni o'tkazish uchun Bank tomonidan Mijozga ochiladigan, O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasidagi maxsus so'm karta hisobvarag'i.

**2.14. Mijoz** – jismoniy shaxs - Ofertani akseptlagan va shu tariqa tuzilgan Oferta-Shartnomasi bo'yicha bank xizmatlarining buyurtmachisi hisoblangan, Bankning Mobil ilovasining Identifikatsiyalangan foydalanuvchisi maqomiga ega bo`lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi, chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'limgan shaxs.

**2.15. Aloqa-markazi** - Mijozni Kodli so'z bilan Autentifikatsiya qilganidan so'ng, Mijozlarga telefon aloqa kanali orqali Karta hisobvarag'ining holati, o'tkazilgan operatsiyalar to'g'risida ma'lumotlar beruvchi, Virtual kartani bloklovchi, Virtual kartadan foydalanish masalalari bo'yicha maslahat beruvchi va boshqa Masofaviy bank xizmatlari haqida ma'lumot beruvchi Bankning bo'linmasi.

**2.16. Bankning Mobil ilovasi** - bu Mobil qurilmaning operatsion tizimiga o'rnatiladigan dasturiy mahsulot bo'lib, uning yordamida Mijoz "Mobil banking" Tizimi bilan o'zaro aloqada bo'ladi.

**2.17. Milliy to'lov tizimi** – O'zbekiston Respublikasi ichida bank kartalari bo'yicha operatsiyalarga ishlov derish uchun operatsion va to'lov kliring markazi.

**2.18. Oferta** - bir yoki bir nechta aniq shaxslarga yuborilgan taklif bo`lib, bu yetarli darajada aniq va taklif kiritgan shaxsning o'zini taklifni qabul qiladigan adresat bilan shartnoma tuzgan deb hisoblash niyatini ifodalaydi. Ushbu holatda, oferta bu - mazkur Ommaviy shartnoma-oferta hisoblanib, u Mijoz tomonidan ofertani aktseptlash orqali Bank va Mijoz o'rtaсида tuziladi (bundan buyon matnda "Shartnoma"deb yuritiladi).

**2.19. SHIR-kod** - bu Bank Mobil ilovasining HUMO-Pay menyusiga kirish uchun maxsus

kod bo'lib, Mijoz Virtual kartadan foydalangan holda operatsiyalarni amalga oshirish huquqini tasdiqlash, shuningdek ma'lumotlarga kirishni cheklash uchun mo'ljallangan. SHIR-kodlar maxfiy ma'lumotlar hisoblanib, Virtual kartadagi pul mablag'larining saqlanishini ta'minlash maqsadida Mijoz tomonidan sir saqlanishi kerak.

2.20. **Karta rekvizitlari** - kartaning raqami va amal qilish muddati.

2.21. "**Mobil banking**" tizimi (bundan buyon matnda "Tizim" deb yuritiladi) – bu Mijozlar - jismoniy shaxslar tomonidan Mijoz ro'yxatdan o'tishi amalga oshiriladigan mobil telefonlar va Internet-brauzer orqali masofadan turib bank xizmatlarini olish ushun mo'ljallangan bank ilovasi.

2.22. **Slip** - Virtual karta bilan to'lashda rasmiylashtiriladigan chek bo`lib, Terminal yordamida beriladi.

2.23. **Tariflar** - Bankning vakolatli organi tomonidan tasdiqlangan «ASIA ALLIANCE BANK» ATB mijozlariga xizmat ko'rsatish Tariflari, shu jumladan, bank plastik kartalarini chiqarish va ularga xizmat ko'rsatish Tariflari.

2.24. **Tranzaktsiya (Operatsiya)** – Mijoz tomonidan Virtual kartaning rekvizitlaridan (karta raqami, uning amal qilish muddati) foydalangan holda amalga oshiriladigan tovarlar, ishlar va xizmatlar uchun to'lov.

2.25. **Terminal** - tovarlar, ishlar va xizmatlar uchun Virtual karta bo`yicha hisob-kitob qilish, bank cassalarida naqd pul mablag`larini olish, shuningdek Mijoz tomonidan HUMO-Pay xizmatidan foydalanishi sharti bilan Mijoz tomonidan taqdim etilganda, ma'lumotnomalar axborotlarini taqdim etish uchun foydalaniladigan qurilma yoki dasturiy ta'minot.

2.26. **SSK** - O'zbekiston Respublikasida joylashgan tovarlar, ishlar va xizmatlar uchun to'lov sifatida Virtual kartani qabul qiluvchi, Internet-sayt yoki Terminallardan foydalangan holda tovarlar, ishlar, xizmatlar sotishni amalga oshiruvchi savdo-servis korxonasi.

2.27. **HUMO-Pay** - smartfon yordamida NFC orqali to'lash uchun to'lov servisi.

2.28. **NFC (Near field communication)** – 10 santimetr masofada joylashgan qurilmalar o'rtaida ma'lumot almashish imkonini beruvchi qisqa masofali ma'lumotlarni simsiz uzatish texnologiyasi.

### 3. UMUMIY QOIDALAR

3.1. Mijoz Ofertani aktseptlaganidan so'ng, Bank real vaqt rejimida Karta hisobvarag`ini, Virtual kartani ochadi va uning rekvizitlarini Mobil ilovaga joylashtiradi.

3.2. Mijozning nomiga O'ZR milliy valyutasida hisobvaraqlari bilan birga beshtadan ko'p bo'lмаган Kartalar chiqarilishi va amalda bo'lishi kerak.

3.3. Bank Mijoz nomiga O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida Karta hisobvarag`ini ochadi.

3.4. Virtual kartaning amal qilish muddati 3 (uch) yilni tashkil etadi va Mobil ilovada Karta tasvirining old tomonida ko'rsatilgan yil oyining oxirgi kuniga qadar amal qiladi. Virtual kartaning amal qilish muddati tugaganidan so'ng, Mijoz Bank Mobil ilovasining tegishli menyusi orqali, Kartani qayta chiqarish uchun Bankka murojaat qilishi kerak.

3.5. Virtual karta rekvizitlaridan quyidagi hollarda foydalanish mumkin emas:

- Virtual kartaning amal qilish muddati tugaganda;
- Virtual karta Mijozning talabiga binoan yoki ushbu Sharhnomada ko'zda tutilgan holatlarda Bank tomonidan bloklanganda;

• SHIR-kodni uch marta noto'g'ri kiritish tufayli Virtual karta bloklanganda.

3.6. Bank Virtual kartasini chiqarish/qayta chiqarish uchun Mijozdan Bankning amaldagi Tariflariga muvofiq komissiya undiradi.

3.7. Mijoz tomonidan Virtual kartadan foydalangan holda operatsiyalarni amalga oshirish, ularni hisobga olish va o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun Bank tomonidan ochilgan Karta hisobvarag'i quyidagi rejimga ega:

- 1) Karta hisobvarag 'i O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida – so'mda yuritiladi;

2) Karta hisobvarag'i tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq hisob-kitob operatsiyalarini o'tkazish uchun mo'ljallanmagan;

3) Karta hisobvarag'idagi pul mablag'larining haqiqiy qoldig'iga Bank Tariflarda belgilangan miqdorda foizlar hisoblanadi;

4) Mijoz faqat Virtual karta rekvizitlari yordamida va faqat Virtual kartaning amal qilish muddati davomida mustaqil ravishda Karta hisobvarag'i bo'yicha xarajat operatsiyalarini amalga oshirishi mumkin;

5) Bank Karta hisobvarag'idan komission mukofotni Tariflarga muvofiq va boshqa to'lovlarni ushbu Shartnomaga muvofiq aktseptsiz tartibda yechib oladi.

3.8. Mijoz ushbu Shartnoma doirasida Bank tomonidan taqdim etiladigan quyidagi turdag'i operatsiyalarni amalga oshirishi mumkin:

3.8.1. Internet-sayt yoki Terminallardan foydalangan holda tovarlar, ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun Korxonalar bilan naqd pulsiz hisob-kitoblar;

3.8.2. bankomatlar va bank kassalari orqali naqd pul mablag'larini olish;

3.8.3. Bank kassalari orqali Karta hisobvarag'iga pul mablag'larini naqd shaklda kiritish;

3.8.4. amaldagi qonunchilikka muvofiq boshqa hisobvaraqlardan naqd pulsiz shaklda Karta hisobvarag'iga pul mablag'larini kiritish;

3.8.5. bankdan axborotnama olish (hisobvaraqning ishlashi to'g'risida ma'lumotnoma va hokazo).

3.9. Operatsiyalarni o'tkazish uchun Bank Mijozdan Bankning amaldagi Tariflariiga muvofiq komission mukofot undiradi. Mijoz Bankka Tariflarga muvofiq komission mukofotni Karta hisobvarag'idan aktseptsiz tartibda hisobdan chiqarishni topshiradi.

3.10. Tariflarga va ushbu Shartnomaga Bank o'zgartirish/qo'shimchalar kiritgan taqdirda, Bank bu haqda, ushbu Shartnomaga qo'shimcha kelishuv tuzmagan holda, Mijozga bunday o'zgartirish/qo'shimchalar kiritilgan sanadan kamida 10 (o'n) kalendar kun oldin quyidagi usullardan biri bilan xabar berai:

- bank ofislaridagi axborot stendlarida Tariflarga va Shartnomaga o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar kiritish yo'li bilan;
- Bankning veb-sahifasida Tariflarga va Shartnomaga o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar kiritish orqali: [www.aab.uz](http://www.aab.uz);
- Bankning xohishiga ko'ra boshqa yo'l bilan.

3.11. Bank tomonidan Tariflarga va ushbu Shartnomaga kiritilgan o'zgartirish/qo'shimchalar yuzasidan 10 kun muddatda Mijozdan e'tirozlar kelib tushmagan taqdirda, ushbu o'zgartirish/qo'shimchalar Mijoz tomonidan qabul qilingan deb hisoblanadi. Agar Mijoz Tariflarga va ushbu Shartnomaga kiritilgan o'zgartirish yoki qo'shimchalar bilan rozi bo'lmasa, Mijoz bunday o'zgartirish/qo'shimchalar kuchga kirdunga qadar ushbu Shartnomada nazarda tutilgan tartibda Shartnomani bekor qilishga haqli.

3.12. Karta hisobvarag'iga xizmat ko'rsatish debet sxemasi bo'yicha amalga oshiriladi.

3.13. Mazkur Shartnoma bo'yicha barcha hisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida amalga oshiriladi.

3.14. Mijoz Shartnomaning barcha qoidalari va Tariflari, Virtual kartadan foydalanish tartibi bilan tanishib chiqqanligini va roziligin tasdiqlaydi.

3.15. Mijoz tomonidan Onlayn Casino orqali amalga oshirilgan tranzaktsiyalar bahsga sabab bo'lmaydi.

## **4. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

### **4.1. Mijoz quyidagi huquqlarga ega:**

4.1.1. Karta hisobvarag'ida mayjud bo'lgan pul mablag`lari doirasida Virtual karta rekvizitlaridan foydalangan holda operatsiyalarni amalga oshirish.

4.1.2. Bank tomonidan belgilangan shaklda to'ldirilgan o'tkazma uchun arizada Mijoz tomonidan ko'rsatilgan rekvizitlar bo'yicha Karta hisobvarag'idan pul mablag`larini o'tkazish bo'yicha Bankka topshiriqlar berish.

4.1.3. Virtual kartadan G`ayriqonuniy foydalanan taqdirda, Bank Mobil ilovasining tegishli menyusidan foydalangan holda Virtual kartani bloklash.

4.1.4. Bank Mobil ilovasidan foydalangan holda SHIR-kodni o`z xohishiga ko`ra o'zgartirish.

4.1.5. Istalgan vaqtda Mobil ilovaning tegishli menyusidan foydalangan holda yoxud tegishli ariza bilan Bankka murojaat qilish orqali Virtual kartani yopish yo`li bilan uni muddatidan oldin to`xtatish. Mijoz Virtual kartani yopganidan so'ng, ushbu Sharhnomalar bekor qilingan deb hisoblanadi.

4.1.6. Qonunchilik talablarini, shuningdek Sharhnomalar shartlarini hisobga olgan holda Karta hisobvarag'ini Bank cassasi orqali yoki naqd pulsiz to'ldirish.

Ish haqi, pensiyalar, nafaqalar, stipendiyalar va ularga tenglashtirilgan to'lovlar, sug'urta to'lovlar, dividendlar, kreditlar va qarzlar va boshqalarni Karta hisobvarag'iga kiritishga yo'l qo'yilmaydi.

4.1.7. Karta hisobvarag'ining holati to'g'risida yozma va og'zaki ravishda ma'lumotni, shaxsni tasdiqlovchi hujjat bilan Bankka shaxsan murojaat qilganda, shuningdek Autentifikatsiyadan o`tgan taqdirda telefon orqali Karta hisobvarag'i bo'yicha ko'chirmani olish. Shuningdek, Bank Mobil ilovasining tegishli menyusidan foydalangan holda, Karta hisobvarag'ining ishlashi to'g'risida ma'lumot olish.

### **4.2. Bank quyidagi huquqlarga ega:**

4.2.1. Identifikatsiya qilish uchun Mijoz tomonidan Bankka ko'rsatilgan va taqdim etilgan ma'lumotlarning to'g'riliqi va to'liqligini tekshirish. Nomuvofiqliklar va ishonchli bo`lmagan ma'lumotlar aniqlangan taqdirda, Mijozga Virtual kartani ochishni/qayta chiqarishni rad etish.

4.2.2. Agar Bank ilgari Mijoz nomiga 5 (besh) ta Karta chiqargan va ularning amal qilish muddati shu paytgacha tugamagan bo'lsa, Karta ochishni va SKH ochishni rad etish.

4.2.3. Quyidagilarni Mijozning Karta hisobvarag'idan aktseptsiz tartibda hisobdan chiqarish:

1) Virtual kartadan foydalangan holda amalga oshirilgan operatsiyalar summasiga ekvivalent pul mablag'larini;

2) Karta hisobvarag'iga noto'g'ri kiritilgan pul mablag'larini;

3) Tariflarga muvofiq Bankning komission mukofotlari summalarini;

4) Virtual kartalarga xizmat ko'rsatish munosabati bilan Bank tomonidan ko`rilgan hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlarni;

5) Mijoz tomonidan Sharhnomalar shartlarini buzish yoki Virtual karta rekvizitlaridan noqonuniy foydalanan natijasida Bank tomonidan ko`rilgan zararlar summasini.

Shu munosabat bilan, Mijoz ko'rsatilgan summalarini uning qo'shimcha farmoyishisiz hisobdan chiqarish huquqini Bankka beradi va topshiradi.

Karta hisobvarag'iga pul mablag'larini kiritish va/yoki Karta hisobvarag'idan hisobdan chiqarish bo'yicha noto'g'ri yozuv aniqlangan taqdirda, Mijozning yozma roziligini olmasdan, belgilangan tartibda Karta hisobvarag'iga pul mablag'larini kiritish va/yoki Karta hisobvarag'idan hisobdan chiqarish orqali tegishli tuzatishni amalga oshirish.

4.2.4. Istalgan vaqtida, shu jumladan, lekin cheklanmagan holda, Mijozni oldindan ogohlantirmasdan, Virtual kartani to'xtatib turish (bloklash) yoki tugatish va quyidagi hollarda buning uchun zarur choralarini ko'rish:

a) Mijoz tomonidan ushbu Shartnomaga shartlarini, Komplayens bo`yicha qo`shimcha shartlarga muvofiq berilgan tasdiqlarni (ushbu Shartnomaga 1-ilova), To'lov tizimi qoidalarini, ichki bank qoidalarini, amaldagi qonunchilikni buzilishi;

b) Mijoz tomonidan Bankning obro'siga tahdid soluvchi yohud boshqa shaxslarga yoki Bankning o'ziga zarar yetkazadigan noqonuniy operatsiyalar yoki harakatlarni amalga oshirish;

c) Mijoz tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarning ishonchli emasligi aniqlanganda;

d) Noto'g'ri SHIR-kodni kiritishga uchinchi urinishni amalga oshirish. Bunda Bank Virtual kartani bloklaydi;

e) Virtual karta rekvizitlaridan g`ayriqonuniy foydalanishga shubha yuzaga kelgan taqdirda, amaldagi qonunchilikka zid bo'lgan Operatsiyalar aniqlanganda, To'lov tizimidan Virtual karta rekvizitlaridan ruxsatsiz foydalanish ehtimoli to'g'risida ma'lumot kelib tushganda, shuningdek Bank va/yoki Mijozga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan boshqa asoslar mavjud bo'lganda;

f) amaldagi qonunchilikka muvofiq davlat organlarining talablari Bankka kelib tushgan taqdirda;

g) Bankning ixtiyoriga ko'ra boshqa hollarda.

4.2.5. Normativ hujjatlarda belgilangan hollarda Mijoz tomonidan Karta hisobvarag'i bo'yicha amalga oshiriladigan operatsiyalarning amaldagi qonunchilikka muvofiqligini nazorat qilish. Buning uchun Bank Mijozni identifikatsiya qilish va Mijoz to'g'risida ma'lumot to'plash uchun zarur bo'lgan, Arizalardagi ma'lumotlarni tasdiqlovchi zarur hujjatlarni Mijozdan talab qilishga va ulardan nusxalarini olishga haqlidir. Ko`rsatilgan hujjatlar taqdim etilmagan taqdirda, Bank Karta hisobvarag'I bo`yicha xarajatlar operatsiyasini amalga oshirishni rad etishga haqlidir.

4.2.6. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda Karta hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish yoki ularni amalga oshirishni rad etish.

4.2.7. O'z xohishiga ko'ra, Virtual kartadan foydalanish bilan bog'liq operatsiyalar, xizmatlar va funktsiyalar to'plamini o'zgartirish, Tariflarga va ushbu Sshartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, Mijozni bunday o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida mazkur Shartnomaning 3.10-bandida nazarda tutilgan tartibda oldindan xabardor qilish.

4.2.8. Mijozdan Bankka barcha qarzdorlik summalarini va ushbu Shartnomani buzish bilan bog'liq barcha xarajatlarni to'lashni talab qilish.

4.2.9. Virtual karta bo`yicha operatsiyalar limitini belgilash.

4.2.10. Bank qarorlariga muvofiq amalga oshiriladigan keshbek-loyihalari, aktsiyalar va bonus dasturlarini o'tkazish.

4.2.11. Mijozdan Virtual karta orqali o'tkazilgan Operatsiyalarning qonuniyligini tasdiqlashni olish maqsadida Mijoz bilan, shu jumladan Bankda mavjud bo'lgan telefon raqami bo'yicha telefon suhbatlari o'tkazish orqali o'zaro aloqada bo'lish.

4.2.12. Shartnomaning butun amal qilish muddati davomida Mijozdan Bankka uni identifikatsiya qilish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni, shuningdek nizoli Tranzaktsiyalar

to'g'risidagi arizalarni ko'rib chiqish va ular bo'yicha asosli qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni taqdim etishni talab qilish va ulardan nusxalar olish.

4.2.13. Karta hisobvarag'ida qoldiq mavjud bo'lgan taqdirda, Karta hisobvarag'i bo'yicha 12 oy davomida operatsiyalar bo'lman holda, Karta va Karta hisobvarag`ini blokirovka qilish. Keyinchalik, Mijoz blokirovka qilingan Karta hisobvarag'idan pul mablag'larini qaytarish masalasi bo'yicha murojaat qilganida, Bank tegishli yozma ariza olganidan keyin etti kundan kechiktirmay ularni Mijozga naqd pul shaklida beradi yoki uning ko`rsatmasi bo'yicha boshqa hisobvaraqqqa o'tkazadi;

4.2.14. Shartnomaning 6.4-6.6-bandlarida belgilangan tartibda ushbu Shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish.

4.2.15. Onlayn kazino orqali o'tkazilgan tranzaktsiyalar bo'yicha nizolashish (nizo ochish) haqidagi arizani qabul qilishdan Mijozga rad etish.

4.2.16. Texnik uzilishlar, protsessing markazlari tomonidan kliring bo'yicha hisob-kitoblarning o'z vaqtida amalga oshirilmaganligi va boshqalar sababli yuzaga kelgan Karta hisobvarag'ida salbiy balans aniqlangan taqdirda, Mijozning Karta hisobvarag'idan va boshqa karta hisobvaraqlaridan, shu jumladan boshqa banklarda ochilgan hisobvaraqlaridan aktseptsiz tartibda (Mijozning qo'shimcha roziligin olmasdan) pul mablag'larini hisobdan chiqarish.

### **4.3. Mijoz majburiyatları:**

4.3.1. Qonunchilikka, unga muvofiq belgilangan ichki bank qoidalariga, To'lov tizimlari qoidalariga, Shartnoma talablariga va Komplayens bo'yicha qo'shimcha shartlarga (ushbu Shartnomaga 1-ilova) muvofiq u tomonidan berilgan tasdiqlarga rioya qilish.

4.3.2. Identifikatsiya qilish tartib-taomilini amalga oshirishda Bankka taqdim etilgan sanasida asl va haqiqiy bo'lgan hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etish.

4.3.3. Shartnomaga tegishli bo'lgan barcha o'zgarishlar, ismi, otasining ismi, familiyasi, yashash joyi (ro'yxatdan o'tish) manzili, Mijozni identifikatsiyalash uchun zarur bo'lgan pasport ma'lumotlari, shuningdek telefon raqamlarining o'zgarganligi to'g'risida darhol Bankka xabar berish. Yuqoridaq o'zgarishlarni tasdiqlovchi hujjatlarni darhol Bankka taqdim etish. Familiyasi, ismi yoki otasining ismi o'zgargan taqdirda, Virtual kartani qayta chiqarish to'g'risida yozma ariza bilan Bankka murojaat qilish.

4.3.4. Karta hisobvarag'idagi mablag' qoldig'i doirasida xarajatlar operatsiyalarini amalga oshirish.

4.3.5. Karta hisobvarag'idan tadbirdorlik faoliyatini amalga oshirish uchun foydalanmaslik.

4.3.6. Virtual karta bilan to`langan xarid savdo nuqtasiga qaytarilgan taqdirda, savdo nuqtasidan xarid narxini naqd pul mablag`lari bilan qaytarishni talab qilmaslik. Ko'rsatilgan qoplab berish faqat Karta hisobvarag'ida naqd pulsiz yo'l bilan amalga oshirilishi mumkin.

4.3.7. O'z vaqtida to'lash/qoplab berish:

- komissiyalar, Bank Tariflarida nazarda tutilgan boshqa summalar;
- Virtual karta rekvizitlari yordamida amalga oshirilgan Tranzaktsiyalar summasi;
- Bank tomonidan Karta hisobvarag'iga noto'g'ri kiritilgan summalar;
- ushbu Shartnomani buzgan holda amalga oshirilgan Tranzaktsiyalar summasi, Virtual karta rekvizitlaridan noqonuniy foydalanishning oldini olish va tergov qilish, shuningdek Shartnoma shartlarini buzhish va Mijozning qarzdorligini haqiqiy xarajatlarga muvofiq majburiy undirish bilan bog'liq summalar.

4.3.8. Mobil ilovaga kirishda va boshqa hollarda SMS-ogohlantirishlar orqali olingan Virtual karta rekvizitlarini, PIN-kod, bir martalik tekshirish kodlarini uchinchi shaxslarga bermaslik, Internet tarmog'idagi shubhali havolalarga o'tmaslik. Virtual karta rekvizitlaridan g'ayriqonuniy foydalanishning oldini olish uchun barcha choralarini ko'rish.

4.3.9. Virtual karta rekvizitlaridan noqonuniy foydalilanilgan taqdirda, Karta hisobvarag'idagi Operatsiyalarni to'xtatib turish uchun, Bank Mobil ilovasining tegishli menyusidan foydalangan holda Virtual kartani darhol blokirovka qilish yoki bu haqda Bankka

xabar berish. Agar xabar og'zaki shaklda qilingan bo'lса, 2 (ikki) ish kunidan kechiktirmay o`zining og'zaki xabarini yozma ariza bilan tasdiqlash.

4.3.10. Mobil qurilmalarni uchinchi shaxslarga foydalanishga bermaslik va Mobil qurilmada mavjud bo'lgan ma'lumotlarning saqlanishini ta'minlash.

4.3.11. Virtual karta rekvizitlaridan foydalangan holda amalga oshirilgan barcha operatsiyalar, shu jumladan Mijozning xabardorligida yoki xabari bo'lмаган hollarda uchinchi shaxslar tomonidan amalga oshirilgan operatsiyalar uchun javobgar bo'lish.

4.3.12. Mijozga tegishli bo'lмаган pul mablag'lari Karta hisobvarag'iga noto'g'ri kiritilganligi to'g'risida ushbu fakt aniqlangan kundan boshlab 10 (o'n) kalendar kun ichida Bankni yozma ravishda xabardor qilish va bunday hollarda noto'g'ri kiritilgan pul mablag'larini Bank tomonidan aktseptsiz hisobdan chiqarish uchun Karta hisobvarag'ida pul mablag'larining yetarliligini ta'minlash.

4.3.13. Kartaning amal qilish muddati o'tganidan keyin uning rekvizitlaridan foydalangan holda operatsiyalarni amalga oshirmslik.

4.3.14. Virtual kartaning amal qilish muddati tugaganidan so'ng uni qayta chiqarish uchun Mobil ilovaning tegishli menyusidan foydalanish orqali Bankka murojaat qilish.

4.3.15. Bankka uning talabiga binoan Shartnomaning 4.2.12-bandida ko'rsatilgan hujjatlarni darhol taqdim etish.

4.3.16. Virtual kartadan noqonuniy foydalanishning oldini olish bo'yicha hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlarni Bank tomonidan haqiqatda ko'rilgan xarajatlar miqdorida, shuningdek Mijoz tomonidan mazkur Shartnomani buzish bilan bog'liq Bank yo`qotishlarini qoplash.

4.3.17. Karta hisobvarag'idagi mablag'lar qoldig'i doirasida xarajatlar operatsiyalarini amalga oshirish, limitdan ortiq qarzdorlikning yuzaga kelishini nazorat qilish va uning yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslik. Karta hisobvarag'ida salbiy qoldiq shakllanganligi munosabati bilan Bank oldida qarzdorlik yuzaga kelgan taqdirda, Bankning birinchi talabiga binoan qarzdorlikni so`ndirish;

#### **4.4. Bank majburiyatları:**

4.4.1. Ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq Mijoz nomiga Karta hisobvarag'i va Virtual kartani ochish.

4.4.2. Amaldagi qonunchilikka, bank qoidalariga, To'lov tizimi qoidalariga, ushbu Shartnomaga va Tariflarga muvofiq Virtual karta rekvizitlaridan foydalangan holda operatsiyalar bo'yicha hisob-kitoblarni o'z vaqtida amalga oshirish.

4.4.3. Bankka tegishli ravishda to'ldirilgan o'tkazma uchun arizasini topshirganda va Karta hisobvarag'idagi pul mablag`lari qoldig'i o'tkazmani amalga oshirish va Bank komissiyasini to'lash uchun yetarli bo'lish sharti bilan, Mijozning Karta hisobvarag'idan pul mablag'larini o'tkazish bo'yicha topshiriqlarini bajarish.

4.4.4. Mijozni Bank Tariflari bilan tanishtirish va Mijozni ushbu Shartnomada nazarda tutilgan tartibda Tariflar va Shartnoma shartlariga kiritilgan o'zgarishlar to'g'risida xabardor qilish.

4.4.5. Mijozning Karta hisobvarag'ini Karta hisobvarag'idagi pul mablag`lari qoldig'ini kamaytiruvchi tranzaktsiyalar summasiga, shuningdek ushbu tranzaktsiyalarni amalga oshirganlik uchun Bankning komission mukofoti summasiga debetlash.

4.4.6. Karta hisobvarag'ini to'ldirish maqsadida pul mablag'larini kiritishda, shuningdek Virtual karta bo'yicha to'lov qaytarilgan taqdirda, Mijozning Karta hisobvarag'ini kreditlashni amalga oshirish.

4.4.7. Mijozning arizasi asosida Bankning amaldagi Tariflariga muvofiq Karta hisobvarag'idan ko'chirma taqdim etish.

4.4.8. Mijozdan Virtual kartadan noqonuniy foydalanish to'g'risida ariza olinganda, darhol Virtual kartani blokirovka qilish.

4.4.9. Virtual kartaning amal qilish muddati tugagan va Bank Mobil ilovasining tegishli menyusidan foydalangan holda Mijoz Bankka ariza bilan murojaat qilgan taqdirda, Virtual kartani

qayta chiqarishni amalga oshirish.

4.4.10. Mijozga Virtual kartadan foydalanish va Bank Tariflarida nazarda tutilgan hisob-kitob texnologiyasi masalalari bo'yicha maslahatlar berish.

4.4.11. Shartnoma bekor qilingan taqdirda, Mijozga Karta hisobvarag'ida joylashtirilgan pul mablag'lari qoldig'ini Mijozning Bankda ochilgan hisobvarag'iga naqd pulsiz o'tkazish yo`li bilan yoki Mijozning xohishiga ko`ra naqd pul mablag'lari bilan qaytarish va keyin Karta hisobvarag'ini yopish.

## 5. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun Tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq javobgar bo`ladilar.

5.2. Mijoz Bankka taqdim etiladigan barcha ma'lumotlarning ishonchliliqi uchun javobgar bo`ladi.

5.3. Mijoz Shartnomada nazarda tutilgan o`z majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganligi uchun javobgar bo`ladi.

5.4. Bank tomonidan Virtual karta ochilgan paytdan boshlab uning rekvizitlaridan foydalangan holda amalga oshirilgan barcha operatsiyalar uchun Mijoz javobgardir.

5.5. Mijozning ushbu Shartnoma shartlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi natijasida Bankka yetkazilgan zarar Mijoz tomonidan so'zsiz qoplanishi kerak.

5.6. Bank Virtual kartani o'z vaqtida blokirovka qilmaganligi uchun javobgar bo`ladi. Mijoz tomonidan Virtual kartani blokirovka qilish to'g'risida Bankni o'z vaqtida xabardor qilmaganligi oqibatlari uchun Bank javobgar bo`lmaydi.

5.7. Pul mablag'larini Karta hisobvarag'iga o'z vaqtida o'tkazmaganlik uchun Bank qonunchilikda belgilangan javobgarlikni olib boradi.

5.8. Mijoz tomonidan Karta hisobvarag'iga joylashtirilgan mablag'larning saqlanishi uchun Bank javobgar bo`ladi va ushbu Shartnomaga hamda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq Mijozga qaytarilishini kafolatlaydi.

5.9. Bank Karta hisobvarag'idagi operatsiyalar to'g'risida bank sirini saqlash uchun javobgar bo`ladi. Karta hisobvarag'i va Virtual kartadan foydalangan holda amalga oshirilgan operatsiyalari to'g'risidagi ma'lumotlar Bank tomonidan uchinchi shaxslarga faqat O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq bunday axborotni oshkor qilish Bankning majburiyati bo'lgan hollarda yoki boshqa hollarda Mijozning roziligi bilan oshkor etilishi mumkin.

5.10. Mijoz tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lgan Operatsiyalarni amalga oshirganligi uchun Bank javobgar bo`lmaydi.

5.11. Mijoz ushbu Shartnoma shartlarini bajarmagan hollarda, shuningdek Bank nazorati doirasidan tashqarida bo'lgan holatlarda Bank javobgar bo`lmaydi.

5.12. Bunday xizmatlar uchinchi shaxslar tomonidan ko`rsatilganda va ularning ko`rsatilishi Mijozda Virtual kartaning mavjudligi bilan bog'liq bo'lsa, Bank Mijoz oldida xizmatharni ko`rsatish yoki ularning sifati uchun javobgar bo`lmaydi. Texnik uzilishlar (elektr ta'minoti va aloqa tarmoqlarining o`chirilishi/shikastlanishi, texnikaning ishlamay qolishi, dasturiy ta'minot, elektr ta'minoti, ma'lumotlar uzatish tizimlari va Bank ma'lumotlar bazasidagi uzilishlar, protsessing tashkiloti bilan aloqaning uzilishi va boshqalar) yuzaga kelgan taqdirda, Bank mulkiy javobgarlikdan ozod qilinadi.

5.13. Tomonlar ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganliklari uchun,

agar bunday bajarilmaslik yoki qisman bajarilmaslik davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan hujjatlar (cheklovchi xarakterdagi chora-tadbirlar) qabul qilinishi yoki yengib bo`lmas kuch holatlari natijasida yuzaga kelgan bo`lsa javobgar bo`lmaydilar, ularga quyidagilar kiradi: urush, zilzila, yong'in, ish tashlash yoki boshqa ofatlar, shuningdek ularning aybisiz yuzaga kelgan dasturiy ta'minot, elektr ta'minoti va ma'lumotlarni uzatish tizimlarining uzilishi. Tomonlar ushbu turdagи holatlarning boshlanishi va tugashi to'g'risida darhol bir-birlariga yozma ravishda xabar berishlari shart.

Yengib bo`lmas kuch holatlari vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan taqdirda, fors-major deb hisoblanadi.

5.14. Bank qimor o'yinlari, stavkalar (garovlar) va boshqa yuqori xavfli faoliyat bilan bog'liq barcha tranzaktsiyalar uchun, shuningdek bunday tranzaktsiyalar natijasida yetkazilgan zarar uchun javobgar bo`lmaydi.

## **6. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI, SHARTNOMANI BEKOR QILISH TARTIBI**

6.1. Ushbu Shartnoma oferta Mijoz tomonidan Aktseptlangan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi va nomalum muddatga amal qiladi.

6.2. Mijoz istalgan vaqtida ushbu Shartnomanini bir tomonlama tartibda bekor qilishi va tegishli Mobil ilova menyusidan foydalangan holda yoki tegishli ariza bilan Bankka murojaat qilgan holda Virtual kartani yopish orqali uning amal qilishini muddatidan oldin bekor qilishi mumkin. Mijoz Virtual kartani yopgandan va Karta hisobvarag'idan pul mablag`lari qoldig'ini olganidan so'ng, ushbu Shartnoma bekor qilingan deb hisoblanadi.

6.3. Karta hisobvarag'ida hisobga olingan pul mablag`lari qoldig'ini qaytarish Mijozning iltimosiga binoan quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- Karta hisobvarag'ida mayjud bo'lgan pul mablag`lari Bank tomonidan Bankda ochilgan boshqa karta hisobvara qqa o'tkazish orqali Mijozga qaytariladi;
- Bank cassasi orqali naqd pulda beriladi.

Mobil ilovaning tegishli menyusidan foydalangan holda, Mijoz pul mablag`lari qoldig'ini qaytarish usulini tanlaydi.

6.4. Quyidagi hollarda Shartnoma Bank tomonidan bir tomonlama tartibda bekor qilinishi va Karta hisobvarag'i yopilishi mumkin:

- Bank tomonidan Tariflarga va ushbu Shartnomaga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalardan Mijozning rad etishi (ushbu Shartnomaning 3.11-band);
- Mijoz tomonidan Shartnoma shartlarining, Komplayens bo'yicha qo'shimcha shartlarga muvofiq berilgan tasdiqlarning (ushbu Shartnomaga 1-ilova), O'zR qonunchiligi talablarining buzilishi;
- 12 oy davomida Karta hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalar amalga oshirilmagan taqdirda, bunda agar Karta hisobvarag'ida qoldiq bo'limasa va Mijoz ushbu Shartnoma doirasida Bank oldida hech qanday majburiyatlari bo'limasa.
- Kartalarning amal qilish muddati tugagandan so'ng va keyinchalik Mijoz yoki Bank 3 oy ichida Karta hisobvarag'ini qayta chiqarishni va undan foydalinishni rad etganda, shuningdek ushbu Shartnomaga muvofiq tomonlar o'rtasidagi barcha moliyaviy majburiyatlarni tartibga solish sharti bilan Kartaning amal qilishi muddatidan oldin to`xtatilganda.

6.5. Yuqorida ko'rsatilgan asoslar bo'yicha Shartnomanini bekor qilish niyati to'g'risida Bankning xabarnomasi Shartnomaning 6.4-bandida ko'rsatilgan holatlarni yuzaga kelganidan keyin 10 kalender kun ichida Mijozga yuboriladi.

6.6. Karta hisobvarag'ida pul mablag`lari qoldig'i Mijoz tomonidan ko'rsatilgan hisobvarag`iga o'tkaziladi yoki Bank cassasi orqali Mijozga naqd pulda beriladi.

6.7. Shartnomani bekor qilish Karta hisobvarag'ini yopish uchun asos hisoblanadi.

## **7. NIZOLARNI HAL QILISH**

7.1. Ushbu Shartnomani bajarish paytida yuzaga keladigan barcha nizolar va kelishmovchiliklar, imkon qadar, Tomonlar o'rtasidagi muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi.

7.2. Kelishuvga erishilmagan nizolar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi nazarda tutilgan tartibda fuqarolik ishlari bo'yicha sudda hal qilinishi lozim.

## **8. YAKUNIY QOIDALAR**

8.1. Ushbu Shartnomani tuzish orqali Mijoz Bank Tariflari bilan tanishib chiqqanligini tasdiqlaydi.

8.2. Bankning har qanday xabarnomasi taqdim etilgan, xat-xabarlar esa Bankka ma'lum bo'lgan Mijozning oxirgi manziliga jo`natilgan kundan boshlab uchinchi ish kunida Mijoz tomonidan qabul qilingan deb hisoblanadi. Xabarnomani jo`natish sanasi pochta shtempeli bilan belgilanadi.

8.3. Shartnoma bilan tartibga solinmagan masalalar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

## **9. BANKNING YURIDIK MANZILI VA REKVIZITLARI**

«ASIA ALLIANCE BANK» ATB

**Manzil:** Toshkent sh., Yashnobod tumani,

Maxtumkuli ko`chasi, 2A.

Bank rekvizitlari:

h/v 2980200000001095001

MFO: 01095 STIR:207018693

IFUT: 64190 KTUT:22921172

## **KOMPLAYENS BO`YICHA QO`SHIMCHA SHARTLAR**

### **1. Maqsad va ta`riflar.**

1.1. Ushbu Komplayens bo`yicha qo`shimcha shartlarning maqsadi (**bundan buyon matnda “Qo`shimcha shartlar” deb yuritiladi**) Shartnoma taraflari uchun “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in quollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish” (bundan buyon matnda “**JFO/TM/OQTMQK**” deb yuritiladi), “Poraxo'rlikka va korruptsiyaga qarshi kurashish” (bundan buyon matnda “**PKQK**” deb yuritiladi), “Sanktsiyalar va eksport nazorati choralari” (bundan buyon matnda “**Sanktsiyalar**” deb yuritiladi) sohalarida yuzaga keladigan komplayens-tavakkalchiliklarni minimallashtirish hisoblanadi.

**Jinoiy daromadlarni legallashtirish** - jinoyat sodir etish natijasida olingan pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulkka egalik qilish, ulardan foydalanish yoki tasarruf etishning qonuniy shaklini berish.

**Terrorizmni moliyalashtirish** - bu terrorchilarga va terrorchilik faoliyatiga mablag`lar taqdim etish yoki moliyaviy qo'llab-quvvatlashni ko`rsatish.

**Korruptsiya** - shaxs (bank xodimlari)ning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlari yoki o`zqa shaxslarning manfaatlarini ko`zlab moddiy yoki nomoddiy naf olishi uchun qonunga xilof ravishda foydalanishi, shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishi.

**Poraxo'rlik** - bu oluvchiga ta'sir o'tkazish va undan qonunga xilof xatti-harakatlarga erishish maqsadida qimmatliklarni berish, va'da qilish yoki ruxsat berish, olish yoki o'tkazish yoki oluvchining nafni qabul qilishi qonunga xilof bo'lgan vaziyat.

**Sanktsiyalar** deganda, tegishli yurisdiktsiya davlat organlari tomonidan joriy qilingan, yozib qo'yilgan yoki amalga kiritilgan iqtisodiy yoki moliyaviy cheklowlarni yoki savdo embargosini anglatadi.

**Sanktsiyalar ro'yxati** - bu sanktsiyalar ostida bo'lgan jismoniy va/yoki yuridik shaxslar, hududlar, mamlakatlar, tovarlar va xizmatlarning reestri.

**Eksport nazorati** deganda tovarlar, texnologiyalar, texnik ma'lumotlar, dasturiy ta'minot yoki xizmatlarni import qilish, eksport qilish, reeksport qilish, transferi, chiqarish, jo'natish, uzatish yoki har qanday taqdim etish yoki qabul qilishni tartibga solish bilan bog'liq qonunlar yoki huquqiy hujjatlar, shuningdek, hukumat organlari tomonidan qo'llaniladigan va amalga kiritilgan shunga o'xshash xususiyatdagi har qanday qonunlar yoki huquqiy hujjatlar tushuniladi.

**Sanksiya xavfi** - bu bank tranzaksiya xizmatlari sub'ekti, uning ta'sischisi, benefitsiari yoki nazorat qiluvchi shaxsga nisbatan amerika, yevropa sanktsiyalar yoki davlatlar va xalqaro yurisdiktsiyalar tomonidan qabul qilingan boshqa sanktsiyalarning joriy etilishi ehtimoli.

**Bloklangan shaxs** deganda, (a) mol-mulki yoki mulkka bo'lgan huquqi har qanday sanktsiyalar bilan bloklangan, (b) Sanktsiyalarga muvofiq aktivlarni muzlatish ob'ekti sifatida belgilangan, (v) tegishli sanktsiyalar yoki eksport nazorati choralariga muvofiq bitimlar taqiqlangan yoki (g) har qanday bunday shaxsga tegishli yoki nazorat qilinadigan har qanday shaxsni anglatadi.

**Moliyaviy firibgarlik** – qonunga xilof ravishda boyish maqsadida aldash, ishonchni suiiste'mol qilish va boshqa manipulyatsiyalar orqali pul muomalasi sohasidagi noqonuniy xatti-harakatlarni amalga oshirish.

**Mijoz** deganda, unga ushbu komplayens qoidalari qo'llaniladigan, “ASIA ALLIANCE BANK” ATB (bundan buyon matnda “Bank” deb yuritiladi) bilan tuzilgan Sharhnomada belgilangan tomon, yuridik yoki xususiy shaxsni anglatadi.

**Affillangan shaxs** - mijozning faoliyatiga ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxs.

**Korrespondent bank** – “ASIA ALLIANCE BANK” ATB bilan ishbilarmonlik munosabatlarida bo'lgan va vakillik sharhnomasi asosida Bankning topshirig`iga binoan to'lovlari, hisob-kitoblar va boshqa operatsiyalarni bajaruvchi bank.

## 2. Huquqiy asos.

2.1. Ushbu Qo`shimcha shartlar doirasida Bank O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga riox qiladi va xalqaro standartlarga amal qiladi.

2.2. Mahalliy talablarga quyidagi hujjatlar kiradi:

- O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi.
- “Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi Qonun.
- “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida”gi qonun.

• 2017-yil 23-maydagi 2886-soni “Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalari”.

• JFO/TM/OQTMQK, PKQK va Sanktsiyalar sohalarida Bankning tartib-taomillari.

2.3. Xalqaro standartlarga quyidagi hujjatlar kiradi:

- Jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish bo`yicha moliyaviy chora-tadbirlarni ishlab chiqish guruhining tavsiyalari<sup>1</sup> (ingl. Financial Action Task Force on Money Laundering — FATF).
- ISO 37001:2016 - korrupsiyaga qarshi samarali tizimni tashkil etishda xalqaro qurilish modelini o'z ichiga olgan xalqaro standart<sup>2</sup>.
- BMTning Sanktsiyalar ro'yxati, OFAC (AQSH Moliya vazirligining xorijiy aktivlarni nazorat qilish boshqarmasi), EI (Evropa Ittifoqi, Evropa qo`mitasi), UK (Birlashgan Qirollik, Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya) va boshqa xorijiy davlatlar<sup>3</sup> va xalqaro tashkilotlarning vakolatli organlari, shuningdek, boshqa rasmiy ravishda e`lon qilingan sektoral sanktsiyalar va/yoki eksport nazorati ro'yxatlari.
- JFO/TM/OQTMQK, PKQK, Sanktsiyalar sohasidagi Bank vakillik banklarining talablari.

### **3. Mijoz kafolati.**

3.1. Mijoz Bank bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishda Bankni ushbu Qo`shimcha shartlarning 2.2-bandida ko`rsatilgan Qonunchilik hujjalariiga, shuningdek 2.3-bandida ko`rsatilgan xalqaro standartlarga rioya qilishini tasdiqlaydi, xususan, Mijoz:

- Bank bilan shartnomaviy munosabatlar doirasida jinoiy daromadlarni legallashtirishni va terrorizmni moliyalashtirishni amalga oshirmaydi;
- Bank bilan shartnomaviy munosabatlar doirasida moliyaviy firibgarlikda ishtirok etmaydi;
- Bank xodimiga pora taklif qilmaydi, pora bermaydi, Bank xodimidan pora olmaydi;
- Bank nomidan uchinchi shaxslarga pora taklif qilmaydi, bermaydi;
- Bank bilan shartnomaviy munosabatlar doirasida sanktsiyalar ro'yxatida bo'lgan tomon bilan kelishuvlar tuzmaydi, bank operatsiyalarini amalga oshirmaydi;
- Bank bilan shartnomaviy munosabatlar doirasida affillangan shaxsi sanktsiyalar ro'yxatida bo'lgan tomon bilan kelishuvlar tuzmaydi, bank operatsiyalarini amalga oshirmaydi;
- eksport nazorati ostida bo'lgan tovarlar va xizmatlar bo`yicha uchinchi shaxslar bilan kelishuvlar tuzmaydi, bank operatsiyalarini amalga oshirmaydi;
- sanktsiyalar ro'yxatida bo'lgan banklar (*shu jumladan, ularning affillangan shaxslari*) orqali bank operatsiyalarini amalga oshirmaydi;
- shartnoma munosabatlari doirasida amalga oshirilayotgan tranzaktsiyalar, kontraktlar, operatsiyalar qatnashchilari, tovarlar va xizmatlar hamda mablag'larning harakati to`g`risidagi hujjalar va ma'lumotlarning to'liq va shaffof taqdim etilishini ta'minlaydi;
- O'zbekiston Respublikasi Qonunchiliga va xalqaro standartlarga zid bo'lgan har qanday qonunga xilof operatsiyalarini amalga oshirish niyatida emas;

---

<sup>1</sup> <https://www.fatf-gafi.org/>

<sup>2</sup> <https://www.iso.org/ru/iso-37001-anti-bribery-management.html>

<sup>3</sup> Странами G7 являются Франция, США, Великобритания, Германия, Япония, Италия и Канада.

- Mijozning ushbu Qo`shimcha shartga rioxanasi qilmasligi natijasida kelib chiqadigan zararlar, chiqimlar, yo'qotishlar, majburiyatlar, jarimalar, peniyalar yoki xarajatlarni (shu jumladan advokatlik xarajatlari va gonorarlar) qoplash uchun javobgarlikdan Bankni ozod qiladi.

#### **4. Bank huquqlari.**

4.1. Mijoz ushbu Qo`shimcha shartlarning 3-bandi talablarini buzgan taqdirda, Bank Mijoz bilan shartnomaviy munosabatlarni bir tomonlama bekor qilishga haqli.

4.2. Vakillik-banklari tomonidan Bankka nisbatan sanktsiyalar yoki boshqa cheklov choralarini qo'llash xavfi yuzaga kelsa, Bank hisobvaraq ochishni va bank operatsiyalarini amalga oshirishni rad etish huquqiga ega.